

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA FRAZEOLOGIK
INTENSIFIKATORLARNING FUNKSIONAL- PRAGMATIK TADQIQI

Farg'ona Davlat Universiteti
Ingliz tili kafedrası mudiri Phd
Dilshoda Mirzayeva Ikromjonovna
Musojonova Matluba Burhoniddin qizi
Farg'ona Davlat Universiteti
xorijiy tillar fakulteti 2 kurs magistranti

Annotatsiya: Ushbu ilmiy maqolada ingliz va o'zbek tillarida frazeologik intensivliklarning funksional-pragmatik tahlili va uning fanidagi ahamiyati, bu sohaga o'zining keng ko'lamli hissalarini qo'shgan olimlar haqida so'z yuritilgan

Kalit so'zlar: intensivlik, ekspressivlik, absurd, giperbola, nodiskret, emotive

Abstract: This scientific article deals with the functional-pragmatic analysis of phraseological intensifiers in English and Uzbek languages and its significance in science, as well as the scientists who have made extensive contributions to this field.

Key words: intensity, expressiveness, absurdity, hyperbole, indiscreet, emotive

Аннотация: В данной научной статье речь идет о функционально-прагматическом анализе фразеологических интенсификаторов в английском и узбекском языках и его значении в науке, а также об ученых, внесших большой вклад в эту область.

Ключевые слова: интенсивность, выразительность, абсурдность, гипербола, нескромность, эмотивность.

Birinchi navbatda intensivlik kategoriyasi haqida so'z yuritsak. Intensivlik (tezkorlik) kategoriyasi muammolari ko'p tadqiqotchilarning e'tiborini o'ziga jalb qilib kelgan. Bu muammo bo'yicha qilingan ko'pgina ishlarda intensivlik tushunchasi miqdor tushunchasini anglatishi bayon qilingan. E.A. Sheigalning yozishicha, "intensivlik kategoriyasi sifatning miqdoriy bahosini anglatib, miqdor kategoriyasining qisman ko'rinishiga aylanadi. Nodiskret (noaniq) miqdor sifatida

baholanadi.”. I.I Turanskiy “intensivlik kategoriyasi –semantik kategoriyadir. Uning asosida keng ma’noda miqdor tushunchasi yotadi. Intensivlik sifatning miqdor o’lchovi, eksplikativlik o’lchovi, kommunikatsiya mazmuni ko’rsatkichidir” deb yozadi. Bunday ta’rif Sh. Ballida boshlangan edi. Sh. Balli intensivlik deganda “...miqdor, kattalik, kuch kategoriyalariga to’g’ri keladigan tushunchalarni anglatishini aytadi va “... miqdoriy farq yoki intensivlikdagi farq biz o’zimiz anglagan har qanday ob’ekt yoki o’z fikrlarimizni kiritadigan umumiy kategoriyalardan biridir” deb xulosa qiladi. Intensivlik terminini borliq predmetlari ob’ektiv belgilari miqdori xarakteristikasiga kiritilishi mumkin. Intensivlik haqida masalan, o’sish, vazn, rang, o’lcham kabi real ob’ektlar tasnifi haqida gapirish mumkin. I.I. Turanskiy intensivlikning universal ta’rifini tan olgan holda ekspressiv stilistika nuqtai–nazaridan uni ekspressivlik miqdori sifatida ham aniqlaydi. “Ekspressivlik –matn belgisi, uning sifat xarakteristikasidir. Ekspressivlik bayonning neytral shakliga to’g’ri keladi, busiz ekspressiya mazmunsizdir. Kuchaytirilgan ifodalilik, boshqa tomondan, kuchayish jarayonini yoki intensifikatsiyani bildiradi. Intensifikatsiya kuchaytirish darajasi ko’rsatkichi sifatida (ekspressiv) nutq sifatining miqdor xarakteristikasi, gapning predmet mantiqiy ekspressiv ifodasining miqdoriy aks etishidir.”.

Intensivlikni ifodalash uchun til fonetika, morfologiya, leksikologiya va sintaksis kabi turli tenglik hosil qiluvchi fanlarga tayanadi. Bunda asosiy o’rinni intensivlik kategoriyasini ifodalashda intensivlashning leksik vositalarini o’rganish egallaydi, chunki aynan shu til darajasi ko’proq miqdordagi til birliklarini tashkil qiladi. Bunga dalil sifatida “Ingliz va o’zbek tillarining kuchaytirilgan so’z birikmalari lug’ati” ni keltirish mumkin. Unda eng ko’p sonli leksik birliklar plastini ravishlar, fe’llar va sifatlar tashkil etgan.

Zamonaviy ingliz tilida frazeologik intensifikatorlar turli funksional stillarning ajralmas qismiga aylanganiga qaramasdan, u frazeologiyada kam o’rganilgan soha bo’lib qolmoqda. Frazeologiya bo’yicha mavjud adabiyotlar tahlili ko’rsatdiki, umuman frazeologlarning ishlarida frazeologik intensifikator qandaydir frazeologik masalaning ko’rib chiqilishida faqat illustrativ material bo’lib xizmat qilgan.

Ingliz tilida frazeologik intensifikatorlarning eng to'liq tarkibi birinchi bor A.V. Kunin tomonidan aniqlandi.

Keng ilustrativ material guvohlik beradiki, juda ko'pchilik frazeologik intensifikatorlar zamonaviy ingliz tilida, uning har xil stil va janrlarida amal qiladi.

A.V. Kuninning ishlarida frazeologik intensifikatorlar kelib chiqish, hosil bo'lish yo'llari, zamonaviy ingliz tilida ishlatilish xususiyatlari ko'rib chiqiladi. Ularning struktur –semantik va grammatik xarakteristikalarini tahlil qilinadi. O'zining idiomalar klassifikatsiyasida olim frazeologik intensifikatorlarni nominativ adverbial frazeologik birliklarga kiritadi. Strukturasi ko'ra Kunin intensifikatorlarni uch guruhgabo'ladi:

bir so'z turkumli, o'zgaruvchan so'z birikmasi bilan ikki so'z turkumli, ergash gap strukturali uch so'z turkumli intensifikatorlar. Ular doimo as yoki like bog'lovchisi bilan keladi. Bu tipdagi frazeologik intensifikatorlarning ko'pchiligi bir so'z turkumli bo'ladi. Intensifikatorlar sintaktik bog'langandir, chunki ular ma'lum bir so'z turkumlariga birikkan bo'ladi va o'ziga xos yarim komparativ oborotlar sifatida qaralishi mumkin. A.V. Kunin ularni ikki tipga bo'ladi: sifat, ravish intensifikatorlari va fe'l intensifikatorlari.

Birinchi tipga quyidagi as anything, as blazes, as hell, as the devil, as old boots, as all get out–do'zaxdek, kabi frazeologik intensifikatorlarni kiritish mumkin.

Ikkinchi tip, Kuninning aytishicha, eng ko'p sonli frazeologik intensifikatorlar guruhini tashkil etadi va quyidagi birliklarni o'z ichiga oladi:

like one o'clock –aniq,

like billy-or, like blazes –kuchli, favqulodda, dahshatli,

like fun –g'ayrat, shijoat bilan, juda tez,

like hell, like mad, like the devil –jin kabi

Zamonaviy ingliz tilida ergash gap tuzilishli murakkabroq strukturali bir qancha intensifikatorlar uchraydi. As they come, as you please, -favqulodda, as they make them, as the day is long –favqulodda. To'liq ekspressiv ma'no bu oborotlarning predikativ strukturasi butun, intensifikator ma'noga aylantirgan. Shunday qilib, ishonch bilan aytish mumkinki, frazeologiyada intensivlik kategoriyasi ma'noni kuchaytirishga yo'naltirilgan frazeologik intensifikator struktur –semantik sferasiga

kiritildi. frazeologik intensivatorlarning belgi funksiyalari bu paradigmadagi kam tadqiq etilganligi ma'lum bo'ldi. Frazeologik intensivatorlar belgi funksiyalari va xarakteristikalarini o'rganshga bag'ishlangan tadqiqotlar kamligining bosh sababi bizning fikrimizcha, frazeologiya belgisini belgining atrofga munosabati sifatdayoki belgining gapiruvchiga, gapiruvchining belgiga (uning pragmatikasiga) munosabatini hamda frazeologizm va uning atrofida gilarining munosabatini aniqlaydigan "ichki" tomondan olib borilmadi. Yangi kognitiv paradigmaga o'tish kognitiv ilmini lingvistik semantikadan semiotikaga o'tishini bildiradi. Kognitiv paradigma idiomalarning belgili funksiyasi xususiyatini bildiradi.

Frazeologik intensivatorlarning xarakteristikasi va belgi funksiyalari
FI xarakteristikalarini va belgi funksiyalarini o'rganish muammolari.

F. de Sossyurning postulati shu haqdaki, til belgilar tizimidir. Bu FI belgisi tabiatini aniqlashga, u nima bilan "ta'minlangan", uni tasdiqlashga izn beradigan spetsifikasi qanday, FI so'z belgisidan ham, so'z birikmasi funksiyasi belgilaridan ham farq qiladigan xususiyatini aniqlashga da'vat qiladi.

FI belgi funksiyalari va xarakteristikalarini o'rganshga bag'ishlangan tadqiqotlar kamligining bosh sababi bizning fikrimizcha, frazeologiya belgisini belgining atrofga munosabati sifatdayoki belgining gapiruvchiga, gapiruvchining belgiga (uning pragmatikasiga) munosabatini hamda frazeologizm va uning atrofida gilarining munosabatini aniqlaydigan "ichki" tomondan olib borilmadi. Yangi kognitiv paradigmaga o'tish kognitiv ilmini lingvistik semantikadan semiotikaga o'tishini bildiradi.

Kognitiv paradigma idiomalarning belgili funksiyasi xususiyatini bildiradi.

V.N. Teliya uning postulatini "...aniqligi isbotsiz qabul qilinadigan monetaga o'xshash" deb ta'riflaydi. Frazeologizmlar spetsifik belgili xususiyatga egaligini ko'rsatishga uringan birdan –bir olim V.L. Arxangelskiy edi. U frazeologizmlarning barcha sinflariga xos universal belgilar topishga harakat qildi.

Bu uni "til tizimiga nisbatan qo'llaganda frazema belgining quyidagi constant, o'zgarmas xususiyatlarini ko'rsatish mumkin" belgi qobig'ining materialligi; (fonetik jihatdan –eshitish yoki grafik, ko'rish); integrantlar alohidaligi; butunning va qismlarining yaxlitligi, ma'noning kombinator uyg'unligi, gapiruvchining xohishiga ko'ra borliqqa nisbatan ixtiyoriy xarakterdaligi; invariant ma'nolarni ifodalash uchun ma'lum elementlarning qat'iy tartibi; shakl biqirligiga mos ravishda ma'no biqirligi; birikma yoki gapning morfologik –sintaktik qurilganligi; frazeologiya birliklari va uning qoidalari til tizimiga tegishli; til strukturasi laqabni anglatuvchi elementlarning borligi; bunga asoslanib, ellipsisning mavjud bo'lish ehtimoli; ichki formaning yo'qolishi mumkinligi; frazem birlikning suggestivligi va hok.

Keyin "Frazem birliklar mustaqil ruhiy qiymatga ega. Richaglarga o'xshab, ular fikrning tezlashishi va obrazligiga xizmat qiladi.

Olim frazem belgining spetsifik xususiyatlarini atroflicha tasvirlagan, obrazlilik va fikrni tezlashtirish richaglariga qiyoslagan, shuni qo'shimcha qilish maqsadga muvofiqi, pragmatik funksiyani bajarishni ham, ifodalanayotgan narsaga nutq sub'ektining turli munosabatini ham ifodalash qobiliyatini kiritish kerak.

Mo'l –ko'llik –til belgisining mutloq zaruriy xususiyatidir, deydi Bibixin. Idiomatikada mo'l –ko'llikka umumsemiotik yondashuvda “boshidanoq “ortiqcha”, “keraksiz” tushunchasidan chetlashib, uni “takrorlanayotgan”, “tiklangan” tushunchalariga bog'lash kerak. Bu o'rinda frazeologik abstraksiya katta rol o'ynaydi. Frazeologik abstraksiyani boshdan o'tkazmay turib, FI – kerakli mo'l ko'llikka erisha olmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Artemova A.F. Znachenie frazeologicheskix yedinis i ix pragmaticheskiy potensial.
2. Arxangelskiy V.L. Ustoychibiye frazi v sovremennom russkom yazike / V.L. Arxangelskiy. Rostov
3. Arutyunova N.D. Tojdestvo ili podobie? / N.D. Arutyunova // Problemi strukturnoy lingvistiki.
4. Arutyunova N.D. Ot obraza k frazu / N.D. Arutyunova // Mishlenie, kognitivnie nauki, isskustvenniy intellekt.
5. Arutyunova N.D. Tipi yazikovix znacheniy: Otsenka. Sobitie.
6. Christie A. The Mysterious Affair at Styles / A. Christie. – London: Cox and Wyman Ltd., 1978.
7. Coward N. Plays / N. Coward. – London: The Master Playwrights, 1979.
8. Cronin A.J. The Citadel / A.J. Cronin. – Moscow: Foreign Languages Publishing House, 1957.
9. Cronin A.J. Hatter's Castle / A.J. Cronin. – Moscow: Foreign Languages Publishing House, 1960. ф
10. Cronin A.J. Shannon's Way / A.J. Cronin. – London: Victor Gollanz Ltd, 1963.
11. Dickens Ch. Posthumous Papers of the Pickwick Club / Ch. Dickens. – Moscow: Co-operative Publishing Society of Foreign Workers, 1935.
12. www.ziyonet.uz